



BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

Egamberdiyeva Ruxshona Hakim qizi
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim
yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Safarova Aminaxon Sadulla qizi
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Sharipova Adiba Botirjon qizi
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Gulmatova Safargul Narzullo qizi
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf matematika darslarida didaktik o'yinlardan foydalanishning mazmuni va samaradorligi haqida so'z boradi. Boshlang'ich sinflarga mos didaktik o'yinlar orqali afzalliklari yoritib beriladi. Darslardan erishadigan natijalar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar : kreativ , ko'rgazma qurollar , motivatsiya , ko'nikma , “ Davom ettir” o'yini , Y.A.Komenskiy, “Kim tez bajaradi” o'yini, “Bu qaysi shakl?” o'yini, interfaol metodlar .

Ta'lim va oq'itish mazmunining nazariy tomonlarini , uning shakli va uslublarini pedagogikaning bir qismi bo'lgan didaktika o'rganadi. Didaktikaga asoslangan holda biz o'quvchilarga bilim beramiz. Ta'lim jarayonida turli usullardan foydalanamiz. Dars turini to'g'ri va muvaffaqiyatli o'tish uslubini ham to'g'ri tanlasak darsdan yaxshi natija olamiz. Har bir darsni ko'rgazmali va texnika vositalari bilan o'tkazish joizdir. Shundagina dars bilimga boy va qiziqarli o'tadi.



O'qituvchi izlanuvchan va kreativ bo'lishi, darslarni rang-barang usulda o'tishi kerak. Dars o'tishi uchun faqat ko'rgazma qurollaridan foydalanib qolmay, o'yin elementlaridan dars davomida harakatli daqiqalardan foydalanish lozim.

O'quvchi uchun matematik didaktik o'yinlarning asosiy vazifalari: son va miqdordagi g'oyalarni shakllantirish, kattaligi va shakli, vaqt va makonda orientatsiyani rivojlantirishga qaratilgan. Boshqacha qilib aytganda, raqamlar bilan tanishadilar, geometrik raqamlarni o'rganadilar, "katta" va "kichik" tushunchalarini aniqlaydilar.

O'quv-bilim jarayonida yuqori samaradorlikka erishish bolada o'qishga bo'lgan motivatsiyani to'g'ri yo'naltirilganligiga bog'liq hisoblanadi. Didaktik o'yinlar aynan shunday motivatsiyani bera oladi. Shunday ekan o'quvchilarga didaktik o'yinlardan, ko'rgazmali qurollardan, interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalardan foydalanib darslarni tashkillashtirilsa yanada mustahkam va mazmunli o'tishini shakllantirish mumkin.

Boshlang'ich ta'limda didaktik o'yin vositalari bilan darslarni olib borish bolalarning aqliy faoliyatga tezroq kirishishlari va ko'nikma hosil qilishlariga yordam beradi. Yangi darsni boshlash yoki o'tgan darsni mustahkamlash paytida didaktik o'yinlardan foydalanib, o'quvchilarning diqatini bir joyga jamlab, darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirish mumkin. Quyida ayrim didaktik o'yinlar haqida ma'lumot berilgan. **“Davom ettir”** o'yinida o'qituvchi biror son aytadi, o'quvchilar esa uning tashkil qiluvchilarini aytadi: o'qituvchi 10 sonini aytsa, o'quvchilar uni 5 bilan 5 ning yig'indisi, 8 bilan 2 ning yig'indisi, 7 bilan 3 ning yig'indisi ko'rinishida aytadi va hokazo. Shu tariqa barcha o'quvchilar sonning to'ldiruvchilarini aytishi mumkin. Bu o'yin orqali o'quvchilarda sonning tarkibi haqidagi bilimlari va og'zaki qo'shish-ayirish ko'nikmasi mustahkamlanadi. Bundan tashqari darsda faol bo'magan o'quvchilarni ham dars jarayoniga o'yin orqali ishtirokini taminlash imkoniyati paydo bo'ladi.

Didaktik o'yinlar hamma vaqt o'qituvchi uchun o'quvchilarning bilim o'zlashtirishi yoki o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'rsatkichi hisoblanadi. Chex pedagogi Y.A.Komenskiy o'zining mashhur **“Buyuk didaktika”** asarida o'yinni bola faoliyatining asosiy shakli ekanligini ta'kidlab, aynan, o'yin bolaning tabiati va qiziqishlariga mos kelishini aytgan edi. Olim o'yin bolaning



aqliy qobiliyatlarini har tomonlama o‘stirishi, uning tevarak-atrof haqidagi tasavvurlarini kengaytirishi, nutqini o‘stirishini ta’kidlaydi.

Didaktik o‘yinlarga “Do‘koncha”, “O‘z o‘rningni top”, “Kim tez bajaradi”, “So‘zdan so‘z toping”, “Zanjir”, “Doiraviy misollar” singari o‘yinlar kiradi.

“Kim tez bajaradi” o‘yini. O‘yin maqsadi: hozirjavoblik, topqirlik 7malakalarini oshirish. O‘yin jihozi: ikkita savatcha, ifodalar yozilgan (15-6; 7+8; 8+5; 4+9; 11-3 va hokazo) olma shaklli karton qog‘ozlar. Stol ustiga “olmalar” yoyib qo‘yiladi. Duskaga ikki o‘quvchi chiqadi. Ular “olmalar”dagi ifodalarning natijalarini aytib savatga sola boshlaydilar. Ifodaning qiymatini to‘g‘ri topmagan o‘quvchi ularni savatga sola olmaydi. Qaysi o‘quvchi savatga ko‘p “olma” tergan bo‘lsa, o‘sha o‘quvchi g‘olib bo‘ladi. Bu o‘yinni barcha boshlang‘ich sinflarining sinfiga moslab qo‘llash mumkin.

“Bu qaysi shakl?” o‘yini. O‘yinning maqsadi: geometrik shakllar bilan tanishtirish. Ularga ta’rif berish malakasini oshirish. Og‘zaki nutqni rivojlantirish. Xotirani mustahkamlash. O‘yin jihozi: konvertlarga solingan geometrik shakllar. O‘yinning borishi: duskaga bir o‘quvchi chiqadi. Konvertdagi shaklni qaysi ekanini ko‘rib olib, o‘quvchilarga murojaat qiladi. “Qo‘limdagi geometrik shaklning uch tomonida uch burchagi bor, uning tomonlari har xil uzunlikda bo‘lishi ham, bir xil uzunlikda ham bo‘lishi mumkin. Bu qaysi shakl?”. Shaklga to‘g‘ri ta’rif bergan va shaklning nomini to‘g‘ri topgan o‘quvchi rag‘batlantiriladi. Ushbu didaktik o‘yinni sinfdan tashqari darslarda yoki o‘tilgan mavzularni mustahkamlash darslarida qo‘llasa ham samarali natija beradi.

Boshlang‘ich maktab ta’limi keyingi yuqori bosqichdagi sinflar rivojlanishi uchun asosdir. Bolalar uchun boshlang‘ich maktabda keyingi o‘qitish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma va malakalar shakllantiriladi; tafakkur shakllari rivojlantiriladi. ilmiy bilimlar tizimini o‘zlashtirishga hissa qo‘shadi. Bola tashqariga chiqqanda maktabgacha u boshlang‘ich maktabga boradi ko‘p qiyinchiliklar va o‘zgarishlar bilan va bosh rol hozir bo‘lsada ta’lim faoliyatini egallaydi, lekin o‘yin faoliyati hali ham talaba uchun dolzarbligicha qoladi. Bunday holatda muammoning bola uchun yechimi quyidagicha: kichik maktab o‘quvchisi tadqiqotchi, uning qiziqishi atrof-muhitni bilishga qaratilgan tinchlik, sabab-natija munosabatlari va bog‘liqliklarini o‘rnatishdir. Qiziqishni rivojlantirishning eng samarali vositalaridan biri – didaktik



o'yindir. Chunki dars jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanish bolada erkin muloqotga kirishish, o'z fikrini erkin bayon etish , darslarga qiziqish paydo bop'lishi , faol ishtirok etish hamda yangi bilimlarni, tasavvurni ishga solgan holda to'raligicha esda saqlab qolish imkonini beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'lim jarayoniga didaktik o'yinlarni joriy etish quyidagilarga imkon beradi: o'rganish uchun motivatsiyani shakllantirish; talabalarning dastlabki tayyorgarlik darajasini baholash; o'quv materialini o'zlashtirganlik darajasini va uni amaliyotda qo'llash qobiliyatini baholash; olingan bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash va hokazo . Shularni inobatga olgan zamonaviy o'qituvchidan har bir darsni didaktik o'yinlar asosida tashkil etish talab etiladi. Shuning natijasida esa kun davomida bolada charchoq, toliqish kuzatilmaydi va ko'tarinki kayfiyatda yurishiga ham sababchi bo'ladi .

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda zamonaviy darslar va interfaol metodlarning ijobiy tomonlari juda ko'p. Uni qo'llash orqali mavzularni va matematika fanini mukammal o'rganish mumkin. Shunday ekan , matematika darslarida didaktik o'yinlardan foydalanib dars jarayonlari olib borilsa o'quvchilarning darsga qiziqishi ortadi, diqqatni jamlashi rivojlanadi, dars materiallarini o'zlashtirishi yengillashadi, shu bilan birga, ularning fikri, atrof muhitga munosabati, sinchkovlik qobiliyati oshib boradi . O'qituvchi esa bundan darsda faol bo'lmagan o'quvchilarini faolligiga va yangi bilimlar berish yo'llarini topishga erishadi .

Foydalanilgan adabiyotlar

1. ГерасименкоА. А., Шабля И. Н. Использование дидактической игры в процессе обучения младших школьников // Интеллектуальный потенциал XXI века: ступени познания.
2. Berkinov, A. (2019). Technologies For The Development Of Educational And Creative Activities Of Students In The Process Of Solving Problems In



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfséries.com

24th April, 2025

-
- Molecular Physics. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12).
3. Jumayev M.E. Matematika o'qitish metodikasi (OO'Y uchun darslik) Toshkent. "Turon-Iqbol" 2016 yil .
 4. Toxirov J., Muhammedova G. Matematika darsida innovatsiya. – T., 2012
 5. www.ziyonet.uz